# XALQ DEPUTATLARI PESHKU TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 10 - iyul VI-68-78-2-39-K/23 Peshku tumani hokimligi

## Peshku tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 213-son qaroriga asosan Peshku tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov miqdorini belgilash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Buxoro viloyati hokimligining 2023-yil 8-apreldagi 12-102-sonli xati hamda ishchi guruhining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini saqlash bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun (iste’molchilar tomonidan to‘lanadigan) to‘lovning eng yuqori cheklangan miqdori bo‘yicha taklif etiladigan tariflari inobatga olinsin.

2. Tumanda avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun yig‘imlar miqdori ilovaga muvofiq belgilansin.

3. Peshku tumani hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O.Ergashev hamda tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i M.Ravshanovga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi

Nizomni tasdiqlash haqida”gi 213-son qarori asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni tasdiqlangan yig‘im miqdorlari bilan tanishtirib, belgilangan tartiblar bo‘yicha faoliyat yuritilishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

4. “Peshku ovozi” gazetasi (H.Sharopova) va tuman hokimligining matbuot xizmati mazkur qarorni gazetada hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga rasmiy e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Qosimov) zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **V.Qahhorov**

Xalq deputatlari Peshku tuman
Kengashining
2023-yil 10-iyuldagi
VI-68-78-2-39-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Peshku tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to’lovlar miqdori

| Avtotransport turi | To‘xtash muddati | To‘lov miqdori |
|---|---|---|
| Yengil avtomobil uchun | Bir soatgacha | 3000 |
| | Bir soatdan ko'p | 4000 |
| | Bir kunda | 6000 |
| Yuk avtomobil uchun | Bir soatgacha | 5000 |
| | Bir soatdan ko'p | 6000 |
| | Bir kunda | 10000 |
| Motorollerlar uchun | Bir soatgacha | 1000 |
| | Bir soatdan ko‘p | 2000 |
| | Bir kunda | 3000 |